

MUAMMOLI KREDITLARNI SUDGACHA VA SUD JARAYONIDA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank ishi” kafedrasining v.b. dotsenti, Phd.

ORCID: 0000-0002-5821-6221

E-mail: b.maqsudov@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada muammoli kreditlarni sudgacha va sud jarayonida undirishning amaldagi mexanizmlari hamda ularni takomillashtirish imkoniyatlari yoritib berilgan. Tadqiqot davomida muammoli kreditlarni undirishda uchraydigan asosiy muammolar tahlil qilinib, mavjud huquqiy me'yorlar, bank amaliyoti va ijro jarayonlari o'rganilgan. Shuningdek, sudgacha bosqichda qarzdorlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, sud jarayonida undirish mexanizmlarini soddalashtirish va tezlashtirish bo'yicha tegishli yondashuvlar hamda taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: muammoli kredit, sud jarayonidagi kredit, muddati o'tgan qarz, diversifikatsiya, risk.

Аннотация

В данной статье освещены действующие механизмы досудебного и судебного взыскания проблемных кредитов и возможности их совершенствования. В ходе исследования были проанализированы основные проблемы, возникающие при взыскании проблемных кредитов, изучены существующие правовые нормы, банковская практика и процессы исполнения. Также сформированы соответствующие подходы, предложения и рекомендации по повышению эффективности работы с должниками на досудебной стадии, а также упрощению и ускорению механизмов взыскания в судебном процессе.

Ключевые слова: проблемный кредит, кредит в судебном процессе, просроченная задолженность, диверсификация, риск.

Abstract

This article highlights the existing mechanisms for recovering problem loans in pre-trial and judicial proceedings, as well as opportunities for their improvement. During the study, the main problems encountered in the recovery of problem loans were analyzed, and existing legal norms, banking practice, and execution processes were studied. Also, relevant approaches and proposals and recommendations have been formed to improve the efficiency of working with debtors at the pre-trial stage, and to simplify and accelerate the collection mechanisms in the judicial process.

Keywords: problematic loan, loan in litigation, overdue debt, diversification, risk.

KIRISH

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish zarurati ushbu jarayonning ko'p qirrali va murakkabligi, shuningdek, sudgacha, sud va suddan tashqari tartibda qarzdorlikni undirish bo'yicha ilmiy yondashuvlarning yetarli darajada ishlanmagani bilan izohlanadi. Muammoli kreditlarni bartaraf etish va

ularning paydo bo'lishini oldini olish borasida kompleks va konseptual yechimlarni talab etuvchi masalalar mavjud.

Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, biznes muhitini yaxshilash va bank tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha qo'llanilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqori darajada saqlanishiga xizmat qilmoqda. Bank sektorining kapitallashuvi, likvidligi va resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha izchil siyosat yuritilmoqda.

Xorijiy amaliyotda kredit risklarini boshqarishda avtomatlashtirilgan tizimlar, katta ma'lumotlar tahlili va integratsiyalashgan monitoring platformalaridan foydalanish samaradorlikni tubdan oshirayotgani kuzatilmoqda. Xususan, barcha mamlakatlar kesimida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt (AI), mashinaviy o'rganish (ML), bulutli hisoblash texnologiyalari va blokcheyn asosidagi yechimlar kredit portfeli sifatini yaxshilashda muhim vosita sifatida shakllanmoqda. Bu texnologiyalar yordamida qarzdorlarning to'lov intizomi bo'yicha aniq prognozlar shakllantiriladi, risklar real vaqt rejimida baholanadi, shubhali tranzaksiyalar tezkor aniqlanadi va monitoring jarayonlari inson omilidan holi holda xavfsiz tarzda boshqariladi. Eng muhimi, bunday raqamli yondashuv an'anaviy kechikkan javob reaksiyasidan voz kechib, kredit risklarini oldindan bashorat qilish, avtomatik tekshirish va muddatidan avval choralar ko'rish imkonini beradi.

Banklarda muammoli kreditlar bilan samarali kurashish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish nafaqat qo'shimcha imkoniyat, balki zarur talabga aylanmoqda. Raqamli ekotizimga bosqichma-bosqich o'tish kredit portfeli barqarorligini oshiradi, risklarni tezkor boshqarish imkonini yaratadi va muammoli kreditlar ulushining izchil pasayishiga xizmat qiladi.

Ayrim ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, muammoli kreditlarni boshqarish bo'yicha tadqiqotlar ko'p bo'lsa-da, ularning sudgacha, sud jarayonida va suddan tashqari undirish mexanizmlarini chuqur yoritishga bag'ishlangan ishlarga ehtiyoj yuqori bo'lib qolmoqda. Chunki aynan mazkur mexanizmlar bank kredit portfelinin barqarorligini ta'minlashda eng muhim bo'g'inlardan biridir.

Sudgacha undirish mexanizmlarida qarzdor bilan muzokaralar, qayta jadval (restrukturizatsiya), bildirishnomalar orqali ogohlantirish, "soft collection" va "hard collection" kabi kommunikativ hamda ma'muriy choralar qo'llaniladi. Bu bosqichning samarali tashkil etilishi ko'plab kreditlarni sud jarayoniga olib bormasdan turib qaytarish imkonini yaratadi.

Agar ushbu choralar yetarli bo'lmasa, undirishning sud bosqichi ishga tushadi. Sud jarayonida talabnomani qonunchilikka muvofiq rasmiylashtirish, dalillar bazasini shakllantirish, huquqiy ekspertiza va sud qarori asosida majburiy ijro mexanizmlarini qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

Ayrim hollarda suddan tashqari undirish mexanizmlari - garovni sudsiz realizatsiya qilish, notarial tartibda undiruv qo'yish yoki uchinchi tomon vositachiligi orqali kelishuvga erishish kabi usullar ham samarali natija beradi.

Muammoli kreditlarni sudgacha va sud jarayonida samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini

mustahkamlash, risklarni kamaytirish va kredit portfelining sifatini yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, muammoli kreditlar (NPL) ulushini izchil kamaytirish uchun faqat alohida choralar emas, balki kompleks va tizimli yondashuvlar zarur. Bunday yondashuvlar nafaqat banklarning ichki boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirishni, balki institutsional islohotlar, yangi nazorat standartlari va zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni ham talab etadi.

Kredit shartnomasi bo‘yicha o‘z vaqtida bajarilmagan majburiyatlar yuzaga kelganda, bank tomonidan qarzdor bilan muzokaralarga kirishishdan avval undirish jarayonining aniq taktikasi va strategiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Qarzdorlikni undirishning samaradorligi, avvalo, jarayon boshida to‘g‘ri belgilangan rejaga, unda ko‘rsatilgan vaqt chegaralari, qo‘llaniladigan vositalar, mas‘ul xodimlar hamda xarajatlar va kutilayotgan natijalar aniqligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi [1].

Shu bois, har bir kreditning o‘ziga xos xususiyatlari, qarzdorning moliyaviy ahvoli, kreditning hozirgi holati va risk darajasidan kelib chiqib, individuallashtirilgan undirish strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Banklar bunday rejani tuzishda qarzdor bilan muloqot shakllari, monitoring vositalari, qaytarish mexanizmlari va huquqiy choralar ketma-ketligini puxta belgilab olishlari zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli kreditlar masalasi ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar ushbu tushunchani bank faoliyati, kredit siyosati va risklarni boshqarish samaradorligi bilan chambarchas bog‘laydilar.

Xususan, H. Otamurodov muammoli kreditlarni kamaytirishni, avvalo, kredit portfelini to‘g‘ri shakllantirish va samarali boshqarish bilan izohlaydi. Uning fikricha, kreditlar sifatining pasayishi ko‘p hollarda noto‘g‘ri yuritilgan kredit siyosati va portfel tarkibining nomutanosibliigi bilan bog‘liq bo‘ladi. Demak, muammoning ildizi kredit berish jarayonining o‘zidayoq yuzaga keladi [2].

U. To‘xtabayev esa muammoli kreditlarni kredit risklarining amalda namoyon bo‘lishi sifatida baholaydi. Ya‘ni risklarni oldindan baholay olmaslik yoki ularni samarali boshqarmaslik natijasida qarzdorlar asosiy qarz va foiz to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirmaydi. Bu esa kreditning muammoli toifaga o‘tishiga sabab bo‘ladi [3].

Yo. Abdullayev, T. Qoraliyev va boshqa olimlar muammoli kreditlarni, asosan, muddati o‘tgan hamda bankka daromad keltirmaydigan kreditlar sifatida talqin qiladilar. Ular uchun asosiy mezon - kreditning iqtisodiy samara bermasligi va pul oqimlarining uzilishidir [4].

Sh. Abdullayeva esa muammoli kreditlar yuzaga kelishini bankning kredit portfeli holati to‘g‘risida yetarli va ishonchli axborotga ega emasligi bilan bog‘laydi. Uning ta‘kidlashicha, tahlil va monitoringning sustligi, shuningdek, profilaktik choralarni o‘z vaqtida ko‘rilmasligi risklarning ortishiga va muammoli aktivlar ulushining ko‘payishiga olib keladi [5].

L. Dudines muammoli aktivlar tushunchasini kengroq talqin qilib, qaytishi shubha ostida bo‘lgan yoki ularni joylashtirish va ishlatish orqali iqtisodiy foyda olish

ehtimoli past bo'lgan barcha bank aktivlarini ushbu toifaga kiritadi. Bu yondashuv faqat kreditlar bilan cheklanib qolmay, bankning boshqa moliyaviy aktivlarini ham qamrab oladi [6].

Ilmiy manbalar va me'yoriy hujjatlarda “muammoli aktiv”, “muammoli kredit”, “ishlamaydigan kredit”, “harakatsiz kredit” kabi atamalar turlicha qo'llanilsa-da, ularning barchasini birlashtirib turadigan jihat - aktivlarning kutilgan daromadni keltirmasligi va qaytarilishida yuqori risk mavjudligidir.

Muammoli kreditlar faqatgina qarzdorning to'lovga layoqatsizligi natijasi emas, balki bank tomonidan kredit berish, monitoring va risklarni boshqarish tizimidagi kamchiliklarning ham oqibatidir. Shu bois, muammoli kreditlarni kamaytirish uchun faqat undirish choralarini kuchaytirish yetarli emas. Aksincha, kredit portfelini shakllantirish bosqichidan boshlab kompleks yondashuvni qo'llash, doimiy tahlil olib borish hamda erta ogohlantirish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda ham, mamlakatimiz bank tizimida ham kreditlar aktivlarning eng katta qismini tashkil etgani sababli ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar muammoli aktivlar masalasini, avvalo, muammoli kreditlar bilan bog'lab o'rganadilar. Kreditlar tabiatan yuqori riskka ega bo'lgani uchun ularning muammoli toifaga o'tish ehtimoli ham yuqori bo'ladi. Bunga, ko'pincha, banklar tomonidan kredit ajratish jarayonida qarz oluvchining moliyaviy holatini yetarli darajada tahlil qilmaslik, kreditga layoqatlilikni chuqur baholamaslik, garov ta'minoti holatini joyiga chiqib o'rganmaslik kabi omillar sabab bo'lmoqda.

METODOLOGIYA


Mazkur tadqiqot muammoli kreditlarni sudgacha va sud jarayonida undirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida undirish jarayonining sudgacha, sud va suddan tashqari bosqichlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Amaldagi qonunchilik hujjatlari, Markaziy bank me'yoriy talablari hamda tijorat banklari amaliyoti o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali milliy amaliyot xorijiy tajriba bilan solishtirildi. Muammoli kreditlar tarkibi, ularni undirish muddati va qo'llanilayotgan choralar samaradorligi baholandi. Sudgacha muzokara, restrukturizatsiya va mediatsiya usullarining natijalari tahlil qilinib, jarayonni soddalashtirish, hujjatlashtirishni takomillashtirish va ijro mexanizmlarini tezlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muammoli kreditlar bilan ishlash jarayonini bugungi kun talablari asosida tashkil etish yangi kredit turlarining joriy etilishi, kreditlarni taqdim etish texnologiyalarining o'zgarishi, kredit riskini kamaytirish va nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida, xususan, G'arbiy Yevropa davlatlarining bank kreditlash amaliyotida muddati o'tgan kreditlarning jami kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'i 3 foizdan oshmasligi normal holat hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaraviy miqdori 5 foizni tashkil qiladi. Agar bu ko'rsatkich 5 foizga yetadigan bo'lsa, Markaziy bank tomonidan tijorat

bankiga nisbatan kredit berish operatsiyalarini ham vaqtincha to‘xtatib turish bo‘yicha choralar ko‘rilishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Muammoli kreditlarni undirish usullari va ularning tasnifi [7]

Mazkur jadvalda muammoli kreditlarni undirish jarayonining asosiy yo‘nalishlari va bosqichlari ko‘rsatilgan. Undirish jarayoni uchta asosiy turga bo‘linadi: sudgacha undirish, sudda undirish hamda suddan tashqari undirish. Sudgacha undirish o‘z ichida “Soft Collection” (yumshoq usul) va “Hard Collection” (qat’iy usul)ga ajratilgan bo‘lsa, sud orqali amalga oshiriladigan jarayon “Legal Collection” sifatida ifodalangan. Har bir usul qarzdor bilan ishlashning turli darajalarini va huquqiy choralarini nazarda tutadi.

Muammoli kreditlarni undirish jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilishi bank yoki moliya tashkiloti uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki har bir qarzdorga nisbatan darhol sudga murojaat qilish ham iqtisodiy, ham vaqt jihatidan samarasiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli, avvalo sudgacha bo‘lgan yumshoq choralar qo‘llaniladi.

“Soft Collection” bosqichida mijoz bilan telefon orqali bog‘lanish, eslatmalar yuborish, muzokaralar olib borish kabi nisbatan muloyim usullar ishlatiladi. Bu usul ko‘pincha samarali bo‘lib, qarzdorlar o‘z majburiyatlarini tezda bajaradi. Agar natija bo‘lmasa, “Hard Collection”ga o‘tiladi, bunda rasmiy ogohlantirishlar, jarimalar va qat’iy talablar qo‘llaniladi.

Agar bu choralar ham kutilgan natijani bermasa, undirish sud tartibida - “Legal Collection” orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon huquqiy kuchga ega bo‘lsa-da, ko‘proq vaqt va xarajat talab qiladi. Shuningdek, suddan tashqari undirish usullari ham mavjud bo‘lib, ular kelishuv yoki vositachilik orqali muammoni hal qilishga qaratilgan.

Umuman olganda, jadval kreditlarni undirish tizimining mantiqiy ketma-ketligini ko‘rsatadi: avval muzokara, keyin qat’iy choralar, oxirida esa huquqiy jarayon. Bu yondashuv moliyaviy risklarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish, ularni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan, muammoli kreditlarni butkul yo'qotib bo'lmaydi, ularni belgilangan norma bo'yicha qisqartirib turiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada muammoli kreditlarni sudgacha va sud jarayonida undirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari har tomonlama tahlil qilinib, amaldagi tizimning kamchiliklari hamda ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berildi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining ortishi banklarning likvidligi, moliyaviy barqarorligi va butun bank tizimi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bunday qarzdorliklarni imkon qadar sudgacha bosqichda hal etish, ya'ni muzokara, restrukturizatsiya, mediatsiya va boshqa muqobil mexanizmlardan foydalanish eng maqbul yo'l hisoblanadi.

Tahlillar natijasida sudgacha undirish jarayonlarini kuchaytirish nafaqat vaqt va xarajatlarni tejashi, balki bank va mijoz o'rtasidagi o'zaro ishonchni saqlab qolishga ham xizmat qilishi aniqlandi. Shu bilan birga, sud jarayonlarida hujjatlashtirishning yetarli emasligi, ijro mexanizmlarining sustligi hamda protsessual kechikishlar qarzdorliklarni undirish samaradorligini pasaytirayotgan omillar sifatida qayd etildi. Shundan kelib chiqib, elektron hujjat aylanishini keng joriy etish, ijro tizimini raqamlashtirish, garov obyektlarini tezkor realizatsiya qilish hamda huquqiy tartib-tamoyillarni soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, kredit ajratish bosqichidayoq risklarni chuqur baholash, mijozlarning to'lovga layoqatliligini puxta tahlil qilish va profilaktik nazorat choralari kuchaytirish kelgusida muammoli kreditlar paydo bo'lishining oldini olishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Demak, muammoli kreditlar bilan ishlash faqat undirish jarayoni bilan cheklanmasdan, kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, taklif qilingan chora-tadbirlar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga, kredit intizomini oshirishga hamda sud va sudgacha bo'lgan undirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada bank tizimida sog'lom kredit muhiti shakllanib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Toshpulatov D.A. Tijorat banklarida muammoli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish. PhD. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. - T.: 2021. - 14 b.
2. Otamurodov, H.H. (2018) "Current basis of management of the bank credit portfolio in Uzbekistan" International Journal of Economics, Commerce and Management, Vol. VI, Issue 12, 169-179.
3. Tuxtabaev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun diss. Avtoreferati. - T.: 2008. - 24 b.
4. Abdullaev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009 yil, 548 bet.
5. Sh.Z.Abdullaeva. Bank risklari va kreditlash. -T.: Moliya, 2002. 304 b.

6. Dudines L.A. Теоретические подходы к определению сущности проблемных активов банка. Экономика и банки, (2), 28-35.
<http://ojs.polessu.by/EB/article/view/398>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournlbot](https://t.me/@marketinjournlbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**